YAKKABOG` TUMANINING TABIIY-GEOGRAFIK TAVSIFI

To‘rayev Ulug‘bek Murtazoyevich
Qarshi davlat texnika universiteti, t.f.f.d., (PhD) u.m.turaev7@mail.ru
Bozorova Oyto‘ra Rustam qizi
Qarshi davlat texnika universiteti 1-bosqich magistranti
oytorabozorova891@gmail.com

Annotatsiya: Qashqadaryo viloyati Yakkabog‘ tumanining tabiiy-geografik xususiyatlari kompleks tarzda tahlil qilingan. Unda hududning geografik joylashuvi, relyefi va geologik tuzilishi, iqlim sharoiti, gidrografik tarmog‘i, tuproq qoplami, o‘simlik va hayvonot dunyosi haqida ma’lumotlar yoritilgan. Shuningdek, Yakkabog‘daryo va suv omborlarining sug‘orish tizimidagi ahamiyati, hududning agroiqlim salohiyati hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalalari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari hududning ekologik holatini baholash va tabiiy resurslarni samarali boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Yakkabog‘ tumani, tabiiy-geografik sharoit, geografik joylashuv, relyef, geologik tuzilish, iqlim, gidrografiya, Yakkabog‘daryo, Qizildaryo, suv resurslari, tuproq qoplami, o‘simlik dunyosi, hayvonot dunyosi, biologik xilma-xillik, agroiqlim salohiyati, ekologik muhofaza, Hisor tog‘ tizmasi, sug‘orish tizimi, tabiiy resurslar.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasining sharqiy qismida joylashgan Yakkabog‘ tumani tabiiy-geografik jihatdan o‘ziga xos hududlardan biri hisoblanadi. Tuman Qashqadaryo viloyati tarkibiga kirib, uning sharqiy qismida Hisor tog‘ tizmasining tog‘ oldi zonalari bilan chegaradosh holda joylashgan. Hududning geografik o‘rni, relyefi, iqlimi, gidrografiyasi, tuproq qoplami hamda o‘simlik va hayvonot dunyosi o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, tumanning tabiiy resurslari va ekologik salohiyatini

belgilaydi.Yakkabog‘ tumani tabiiy sharoitlari xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Hududda tekislik, adir va tog‘ oldi landshaftlari almashinib keladi. Bunday tabiiy sharoitlar qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, xususan, paxtachilik, g‘allachilik, bog‘dorchilik va chorvachilik uchun qulay imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, hududning iqlimi keskin kontinental bo‘lib, yoz faslining issiq va quruq, qishning esa nisbatan sovuq kechishi bilan xarakterlanadi.Hozirgi kunda hududning tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish, suv resurslarini boshqarish, tuproq unumdorligini saqlash va biologik xilma-xillikni muhofaza qilish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, sug‘oriladigan yerlarning kengayishi, suv tanqisligi va ekologik muammolar hududni ilmiy jihatdan o‘rganishni yanada muhimlashtiradi.

Yakkabog‘ tumanining tabiiy-geografik sharoitlarini kompleks tahlil qilishdan iborat bo‘lib, bunda hududning geografik joylashuvi, relyefi va geologik tuzilishi, iqlimi, gidrografiyasi, tuproq va o‘simlik hamda hayvonot dunyosi o‘rganiladi. Shu orqali hududning agroiqlim va ekologik salohiyatini baholash hamda tabiiy resurslardan samarali foydalanish yo‘llarini aniqlash ko‘zda tutiladi.

Asosiy qism.

Geografik joylashuvi. Yakkabog‘ tumani Qashqadaryo viloyatining sharqiy qismida joylashgan. **Yakkabog‘ tumani** — Qashqadaryo viloyatidagi tuman. 1926-yil 29-sentyabrda tashkil etilgan. Maydoni 1,3 ming km^2. Aholisi 293,8 ming kishini(2026) tashkil etadi, shundan 95,0 mingi shahar aholisi va 198,8mingi qishloq aholisi hisoblanadi. Tuman aholisining o‘rtacha zichligi 1 km2 ga 226 kishi kishini tashkil etadi. Shimoldan Chiroqchi, Shahrisabz, sharq, g‘arb va janubdan Qamashi tumanlari bilan chegaradosh. Aholisi, asosan, o‘zbeklar; shuningdek, tojiklar, qozoqlar, ruslar va boshqalar millat vakillari ham yashaydi. Tumanda 1 shaxar (yakkabog‘) 1 shaxarcha(eski yakkabog‘),9 qishloq fuqorolari yig‘ini (Samoq, Sandal, Xiyobon, Chaydari, Esat, O‘rta, Qayrag‘och, Qishlik, Ko‘shchinor) bor. Tuman markazi — Yakkabog‘ shahri Yakkabog'da "Qizildaryo" suv

irmog'i bor bo'lib Hisor tog'laridan tushib keladi va butun boshli tumanni suv bilan taminlaydi. Bundan tashqari Yakkabog'da "No'g'ayli" suv ombori bor [4;5] .

Relyefi va geologik tuzilishi. Yakkabog‘ tumani Qashqadaryo viloyatining sharqiy qismida joylashgan. Hududining sharqiy chekka qismlarida Hisor tizmasining, balandligi 2500 m gacha bo‘lgan, janubi-g‘arbiy tarmoqlari (Chaqchar, Beshnov, Xontaxta) bor. Bu tog‘lar g‘arbga tomon pasayib, Qashqadaryo tekisliklari bilan qo‘shilib ketadi. Tog‘ etaklari adirlardan iborat. Tog‘lardan ko‘p daryo va soylar oqib tushadi. Asosiy daryosi – Yakkabog‘daryo (Qizildaryo) va uning irmoqlari (Cho‘yanlisoy, Tirnasoy) [6;2].

Iqlimi. Iqlimi kontinental. Yanvarning o‘rtacha harorati –1 °C, eng past harorat –25 °C. Iyulning o‘rtacha harorati 28,5 °C, eng yuqori harorat 44 °C. Yillik o‘rtacha harorat 15 °C . Tumanning o‘ziga xos relyefi (g‘arbga tomon pasayib borishi) hududga bahorikor dehqonchilik uchun yetarli nam tushishiga sharoit yaratgan. O‘rtacha yillik yog‘in 350 mm dan (tekislik qismida) 450 mm gacha, tog‘lik qismida yog‘in ko‘proq. Yog‘inning asosiy qismi (70%) bahor va qish fasllariga to‘g‘ri keladi. Suv sarfini tekislash maqsadida daryo va soylarga to‘g‘onlar qurib, suv omborlari barpo etilgan. Qorabog‘, No‘g‘ayli, Yangiqo‘rg‘on va boshqalar suv omborlari, Darxon, Beshariq, Xo‘jailg‘or, Qurjab ariqlari tumanning asosiy sug‘orish shoxobchalaridir. Sug‘orishda artezian quduqlari suvlaridan ham foydalaniladi[6].

Gidrografiyasi. Tumanning asosiy daryosi Yakkabog‘daryo (Irg‘ayli, Sarito‘qay, Qizildaryo) — Qashqadaryo havzasidagi sersuv daryolardan biri. Tanxozdaryo ning chap irmog‘i. Uzunligi 99 km. Havzasining maydoni 1180 km², shu jumladan, suv to‘plash maydoni 755 km². Hisor tizmasi ning g‘arbiy yon bag‘ridagi muzlikdan 3949 m balandlikda boshlanadi. Yuqori oqimida Irg‘ayli, keyinroq Sarito‘qay, Qizildaryo nomlari bilan ma’lum. Yakkabog‘ qishlog‘idan o‘tgach, Yakkabog‘daryo deb ataladi. Daryoning yuqori oqimida unga buloqlardan boshlangan ko‘p sonli jilg‘alar quyiladi. [2;3]. Asosiy irmoqlari: o‘ngdan — Qoranko‘lsoy,

chapdan — Tirna. Daryoning suvi bu qismida sug‘orishga sarflanadi. Asosan, qor va muzliklar suvidan to‘yinadi. O‘rtacha ko‘p yillik suv sarfi Tatar qishlog‘i yonida (boshlanishidan 50 km masofada) 6,11 m³/sek. O‘rtacha yillik suv sarfi 12,6 m³/sek.dan (ko‘p suvli yilda) 2,15 m³/sek.gacha (kam suvli yilda) o‘zgaradi. To‘linsuv davri mart–avgust oylarida. Eng ko‘p sutkalik suv sarfi may–iyunda (ko‘p suvli yilda 72,1 m³/sek., kam suvli yilda 17 m³/sek.) kuzatiladi. Daryoning eng kam suv sarfi dekabr–mart oylarida bo‘ladi. Daryoning yuqori oqimida unga buloqlardan boshlangan ko‘p sonli jilg‘alar quyiladi. Asosiy irmoqlari: o‘ngdan — Qoranko‘lsoy, chapdan — Tirna. Daryoning suvi bu qismida sug‘orishga sarflanadi. Asosan, qor va muzliklar suvidan to‘yinadi. O‘rtacha ko‘p yillik suv sarfi Tatar qishlog‘i yonida (boshlanishidan 50 km masofada) 6,11 m³/sek. O‘rtacha yillik suv sarfi 12,6 m³/sek.dan (ko‘p suvli yilda) 2,15 m³/sek.gacha (kam suvli yilda) o‘zgaradi. To‘linsuv davri mart–avgust oylarida. Eng ko‘p sutkalik suv sarfi may–iyunda (ko‘p suvli yilda 72,1 m³/sek., kam suvli yilda 17 m³/sek.) kuzatiladi. Daryoning eng kam suv sarfi dekabr–mart oylarida bo‘ladi [1;4].

Tuproq va o‘simlik dunyosi. Tuproqlari, asosan, tipik bo‘z tuproq, tog‘larda qo‘ng‘ir bo‘z tuproq. O‘simlik dunyosi xilma-xil. Tekisliklarda, asosan, cho‘l efemer o‘simliklari, shuvoq, yantoq, sho‘ra, archa, mevali yovvoyi daraxtlar (olcha, nok, olma, pista, do‘lana, bodom va boshqalar), zarang, qatranqi, zirk, itburun va boshqalar o‘sadi [1;3].

Hayvonot dunyosi. Yakkabog‘ tumani hududining hayvonot dunyosi tabiiy-geografik sharoitlar, relyef va o‘simlik qoplami bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, tog‘, tog‘ oldi va sug‘oriladigan tekislik zonalari bo‘yicha farqlanadi. Yovvoyi hayvonlardan tulki, bo‘ri, quyon, qobon, ayiq, qoplon, bo‘rsiq, kiyik; parrandalardan kaklik, bedana, to‘rg‘ay, qarg‘a, chumchuq, qaldirg‘och va boshqalar, kemiruvchilardan sichqon, kalamush; sudralib yuruvchilardan turli xil zaharli va zaharsiz ilonlar, echkemar, kaltakesaklar; suv havzalarida sazan, laqqa, marinka

baliqlari yashaydi. Foydali qazilmalardan toshko‘mir, kumush, qo‘rg‘oshin, mis, rux rudalari, neft bor. Hisor qo‘riqxonasi mavjud 6[;5].

XulosaYakkabog‘ tumani Qashqadaryo viloyatining tabiiy-geografik jihatdan muhim hududlaridan biri bo‘lib, o‘zining qulay geografik joylashuvi, xilma-xil relyefi, iqlim sharoiti hamda boy tabiiy resurslari bilan ajralib turadi. Tumanning sharqiy qismida Hisor tog‘ tizmasining mavjudligi hudud iqlimi, suv resurslari va biologik xilma-xilligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Tekislik, adir va tog‘ oldi landshaftlarining almashib kelishi qishloq xo‘jaligi, ayniqsa, dehqonchilik va chorvachilikni rivojlantirish uchun qulay imkoniyat yaratadi.

Hududning asosiy suv manbasi hisoblangan Yakkabog‘daryo hamda suv omborlari va sug‘orish tarmoqlari tumanda sug‘orma dehqonchilikni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, suv resurslaridan oqilona foydalanish, sug‘orish tizimlarini takomillashtirish va suv tanqisligining oldini olish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Tumanning tuproq qoplami, o‘simlik va hayvonot dunyosi biologik xilma-xilligi bilan tavsiflanadi. Hududda uchraydigan tabiiy ekotizimlarni saqlash, foydali qazilmalardan oqilona foydalanish hamda tabiiy muhofaza hududlarini, jumladan Hisor qo‘riqxonasini asrash ekologik barqarorlikni ta’minlashda muhim omildir.

Umuman olganda, Yakkabog‘ tumanining tabiiy-geografik sharoitlarini chuqur o‘rganish hududning agroiqlim va ekologik salohiyatini to‘g‘ri baholash, tabiiy resurslardan samarali foydalanish hamda atrof-muhit muhofazasini kuchaytirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘ulomov P.N., Hasanov I.A., Qayumov A.A. *O‘zbekiston tabiiy geografiyasi*. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2010.
2. Murodov Sh.O., Valiyev A. *Suv resurslaridan mukammal foydalanish va*

muhofaza qilish. – Toshkent: Aloqachi, 2007.

3. *O‘zbekiston geografiyasi: atlas va qo‘llanma*. – Toshkent: O‘zbekiston geografik jamiyati nashriyoti, 2020.
4. *O‘zbekistonning tabiiy zonalari va ekologik resurslari*. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2018.
5. *Qashqadaryo viloyati geografiyasi*. – Toshkent, 2014.
6. “Yakkabog‘ tumani” // *O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi*. 1-jild. – Toshkent, 2000